

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
14 (33)-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

2026-yil
14 (33)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 31.07.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Azizbek Turdiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo'ronov
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G'ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Olmos Xurramov. Xayriddin Sultonov ijodida Bobur obrazining badiiy talqini ... 4
Malika Gulamova. Muloqotda harakatga undash taktikalari va strategiyalari ... 7
Husnigul Jo'rayeva. Bir g'azal sharhi ... 9
Fazilat Ibragimova. Matnda murojaat birliklarining lingvopoetik xususiyatlari ... 11
Nafosat Zaripboyeva. Ijtimoiy mediada gender stereotiplarning kommunikativ transformatsiyasi ... 14
Maftuna Yunusova. Diskursiv tahlilda tibbiy muloqotning voqelanish asoslari ... 16
Nigora Axtamova. Qarindoshlik nomlarining ingliz tili bilan qiyosiy tahlili va lakunar birliklari ... 21
Наргизахон Абдуллаева. Синкретизм как форма морфологической нейтрализации в английском и русском языках ... 24
Sevara Jumanova. Promptlar strukturasida lingvistik assimetriya: ingliz va o'zbek tillari misolida chog'ishtirma tarjimashunoslik tahlili ... 26
Обид Рахимов. Прагмалингвистические стратегии цифровой коммуникации в узбекском и русском языках ... 28
Shodiya Qurbonova. O'zbek badiiy diskursida bolalar nutqining sotsiopragmatik tadqiqi ... 30
Anvar Sobirov. Jonli so'zlashuv nutqida so'z tartibining lingvopoetik va lingvopragmatik xususiyatlari ... 32
Baxoroy Abdunabiyeva. Uilyam Sidney Porter va Shukur Xolmirzayev hikoyalarining lingvopoetik xususiyatlari ... 34
Ilhom Eshonqulov. Hashmat Buxoriy asarlarida tarixiy voqelikning badiiy talqini ... 36
Nigina Rasuleva. 1950–1990-yillardagi G'arb va Xitoy ilmiy fantastikasining rivojlanish tendensiyalari ... 39
Dilnura Rustamova. Qurbon Muhammadrizoning "Bir siqim tuproq" asarida peyzaj qahramon ruhiy olamini aks ettirish vositasi sifatida ... 42
Nodiraxon Shakirova. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "oila" konseptining etimologik ildizlari va milliy-madaniy xoslanishi ... 44
Zebo Sabirova. Badiiy psixologizm – adabiy-estetik hodisa ... 46
Doniyor Hamidov. "Hissiyot" tushunchasi va uni o'rganishning nazariy asoslari ... 48
Malika Mansurova. Abdulla Qodiriy siymosining dramatik talqini ... 52
Nafisa Azimboyeva. XXI asr o'zbek badiiy tarjimalarida poetik birliklarni qayta yaratish xususiyatlari (Paulo Koeloning "Alkimyogar" romani misolida) ... 54
Sanjar Azimboyev. Ingliz va o'zbek diplomatik nutqlarida pragmatik markerlarning kommunikati funksiyalari ... 57
Munisa Nazarova. Ingliz va o'zbek tillari diskursida sukutning kognitiv-psixolingvistik xususiyatlari ... 60
Nozima Abdullayeva. O'zbek, ingliz va arab tillaridagi salomatlikka oid maqollarda somatizmlarning qiyosiy tahlili ... 62
Dildora Raxmonova. Jadid adabiyotida Ovro'po madaniyatining badiiy talqini: Abdulla Avloniy ijodi misolida ... 65
Shohsanam Kimsanboyeva. "Sayohat xotiralari"da joy nomlari va tarixiy voqealarning yoritilishi ... 67
Gavxarbonu Xoshimova. Sirojiddin Sayyid ijodida quyosh obrazi talqini ... 70
Zulxumor Mirzayeva. Ingliz va o'zbek tillarida aksiologik konseptlarning frazeosemantik maydon doirasida qiyosiy-lingvokulturologik tahlili ... 72
Oliya Qodirova. "Lison ut-tayr" dostoni nashrlarida matniy tafovutlarning qiyosiy tahlili ... 74
Muxtarbay Kurbanov. Qang'li etnonimi haqida ayrim mulohazalar ... 76
Konisbay Sarsenbaev, Omar Saparmatov. The Use of Metonymies in the Works of Poet Kunkhoja ... 78

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Sayyora Islomxo'jayeva. "Lingvistik kompetentlik" tushunchasi va uning o'quv jarayonidagi o'rni 80
Азизбек Султанбаев. Влияние технологий искусственного интеллекта на качество учебного процесса в цифровой образовательной среде 88
Шахло Джамалдинова. Инновационные педагогические технологии как средство развития эмоционально-коммуникативных компетенций студентов медицинских вузов 90
To'lqinjon G'ofurov. O'quv amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy mobilligini dual ta'lim asosida rivojlantirish metodikasi 94
Inoyatxon Normahamatova. Kollaborativ yondashuvning turli yosh bosqichlaridagi o'quvchilarga pedagogik-psixologik ta'sirini qiyosiy o'rganish 96
Sevara Kurbanova. Axborot asrida o'qituvchining kasbiy identifikatsiyasi va o'z-o'ziga ishonchi: zamonaviy pedagogik yondashuvlar 99
Gulhayo Tolibova. Kompetensiyaviy ta'limda matnning didaktik salohiyati 101
Sevara Xudoyqulova. Talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish 103
Muborak Azimova. The Role of Assessment in Vocabulary Teaching Using Mall in English Teaching 105
Saida Ergasheva. Madaniyat va san'at menejerlarida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 108
Guljahon Ergasheva. Ona tili mashg'ulotlarida matn ustida ishlash 110
Oliya Najmiddinova. Curriculum Framework and Curriculum Reform in Uzbekistan 112
Dildor Norqulova. Portret janriga oid materiallar vositasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari 114
Nilufar Oymatova. Adabiyot ta'limida o'yin texnologiyalari: nazariy-metodik tahlil 116
Rustam Turopov. Maktablarda sifatli ta'lim muhitini yaratishda o'qituvchilarning o'rni 119
Jamshid Matnazarov. Mashg'ulotlarni kuzatish va o'zlashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish 121
Sevinch Toshboyeva. Enhancing English Speaking Skills Through Communicative Language Teaching in Uzbek Universities 123
Iroda Umarova. Chet tillarni o'qitishda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning qo'llanishi: xalqaro tadqiqotlar tahlili 125

Iroda UMAROVA,
Amity university Tashkent katta o'qituvchisi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

CHET TILLARNI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANISHI: XALQARO TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tillarni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalarning qo'llanishi bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – SI texnologiyalarining chet til ta'limiga tatbiq etilishini izohlovchi asosiy nazariy yondashuvlarni umumlashtirish, mavjud xalqaro til o'rganish platformalari (Duolingo, ELSA Speak, Babbel, ChatGPT asosidagi vositalar) yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tizimlashtirish hamda bu tajribaning morfologik jihatdan murakkab, kam resursli tillarga (jumladan, o'zbek tiliga) tatbiq etilishidagi metodik muammolarni aniqlashdan iborat. Tahlil kompyuter yordamida til o'rganish (CALL) sohasidagi tadqiqotlar, texnologiyani qabul qilish modeli (TAM), SAMR modeli va Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi asosida olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, SI vositalari talaffuz, leksik boylik va yozma nutqni rivojlantirishda samarali bo'lsa-da, ularning aksariyati keng tarqalgan tillarga mo'ljallangan bo'lib, agglyutinativ tillar uchun til-resurs yetishmovchiligi, moslashtirilgan pedagogik metodika yo'qligi kabi muammolar mavjud. Maqola xulosalari kam resursli tillarni o'qitishda SI texnologiyalarini qo'llash yo'nalishidagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, chet tillarni o'qitish, kompyuter yordamida til o'rganish (CALL), texnologiyani qabul qilish modeli, kam resursli tillar, agglyutinativ tillar.

Annotation. This article analyzes the international scholarly literature on the application of artificial intelligence (AI) and digital technologies in foreign language teaching. The aim of the article is to synthesize the principal theoretical approaches explaining the adoption of AI technologies in language education, to systematize research findings on existing international language-learning platforms (Duolingo, ELSA Speak, Babbel, ChatGPT-based tools), and to identify the methodological challenges of transferring this experience to morphologically complex, low-resource languages, including Uzbek. The review draws on research in computer-assisted language learning (CALL), the Technology Acceptance Model (TAM), the SAMR model, and Vygotsky's sociocultural theory. The findings indicate that AI tools are effective in developing pronunciation, lexical range, and written production, yet most of them are designed for widely spoken languages, while agglutinative languages face a shortage of language resources and a lack of adapted pedagogical methodology. The conclusions of the article may serve as a theoretical foundation for further research on applying AI technologies to the teaching of low-resource languages.

Keywords: artificial intelligence, digital technologies, foreign language teaching, computer-assisted language learning (CALL), technology acceptance model, low-resource languages, agglutinative languages.

Аннотация. В данной статье анализируется международная научная литература по применению искусственного интеллекта (ИИ) и цифровых технологий в процессе обучения иностранным языкам. Цель статьи – обобщить основные теоретические подходы, объясняющие внедрение технологий ИИ в языковое образование, систематизировать результаты исследований, посвящённых существующим международным платформам обучения языкам (Duolingo, ELSA Speak, Babbel, инструменты на основе ChatGPT), а также выявить методические проблемы применения данного опыта к морфологически сложным языкам с ограниченными ресурсами, включая узбекский язык. Анализ проведён на основе исследований в области обучения языку с помощью компьютера (CALL), модели принятия технологии (TAM), модели SAMR и социокультурной теории Выготского. Результаты показывают, что средства ИИ эффективны в развитии произношения, лексического запаса и письменной речи, однако большинство из них ориентировано на широко распространённые языки, тогда как для агглютинативных языков характерны нехватка языковых ресурсов и отсутствие адаптированной педагогической методики. Выводы статьи могут служить теоретической основой для последующих исследований в области применения технологий ИИ при обучении языкам с ограниченными ресурсами.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровые технологии, обучение иностранным языкам, обучение языку с помощью компьютера (CALL), модель принятия технологии, языки с ограниченными ресурсами, агглютинативные языки.

So'nggi o'n yillikda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasiga faol kirib kelishi chet tillarni o'qitish metodikasida tubdan yangilanishlarni yuzaga keltirdi. Kompyuter yordamida til o'rganish (Computer-Assisted Language Learning – CALL) sohasi 1980-yillardan buyon rivojlanib kelayotgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda katta til modellari (large language models) va nutqni tanish texnologiyalarining takomillashuvi bu sohaga sifat jihatidan yangi bosqichni olib kirdi. Duolingo, ELSA Speak, Babbel kabi platformalar, shuningdek ChatGPT va shunga o'xshash suhbat vositalari millionlab foydalanuvchilarga individuallashtirilgan til o'rganish tajribasini taqdim etmoqda.

Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarning aksariyati ingliz, ispan, xitoy kabi keng tarqalgan tillarga mo'ljallangan bo'lib, morfologik jihatdan murakkab va kam raqamli resursga ega tillar – jumladan, o'zbek tili – uchun mos yechimlar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu holat nafaqat texnik, balki metodik jihatdan ham dolzarb muammoni keltirib chiqaradi. Mazkur maqolaning maqsadi – SI va raqamli texnologiyalarning chet til ta'limiga tatbiq etilishi bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tizimli tahlil qilish, ularning nazariy asoslarini umumlashtirish hamda kam resursli tillarga nisbatan qo'llanilishidagi cheklovlarni aniqlashdan iborat.

Xalqaro adabiyotlarda SI va raqamli texnologiyalarning til ta'limiga tatbiq etilishini izohlovchi bir necha nazariy yondashuv shakllangan. Devisning texnologiyani qabul qilish modeli (Technology Acceptance Model – TAM) foydalanuvchining yangi texnologiyani qabul qilishida uning "foydali" va "qulay" ekani haqidagi tasavvurlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini asoslaydi. Puenteduraning SAMR modeli texnologiyani ta'limga tatbiq etish jarayonini almashtirish, kengaytirish, o'zgartirish va qayta yaratish bosqichlariga ajratib, texnologik vositalarning shunchaki yordamchi emas, balki o'qitish jarayonini tubdan qayta qurishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi va ijtimoiy-madaniy nazariyasi esa raqamli vositalarning "ko'makchi" (scaffolding) vazifasini bajarishi, ya'ni o'quvchining mustaqil bajara olmaydigan vazifalarini bosqichma-bosqich mustaqil bajarish darajasiga yetkazishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslaydi.

CALL sohasidagi tadqiqotlar (xususan, Chapelle, Kukulska-Hulme va Godwin-Jonesning ishlari) texnologik

vositalarning til o'rganishga ta'sirini uch yo'nalishda – til bilimini avtomatlashtirilgan tarzda mustahkamlash, mobil vositalar orqali istalgan vaqt va joyda o'rganish imkoniyatini yaratish hamda ma'lumotlarga asoslangan (data-informed) individuallashtirish orqali tavsiflaydi. Bu yo'nalishlarning barchasi zamonaviy SI vositalarida – xususan, moslashuvchan (adaptive) til o'rganish tizimlarida – o'z aksini topgan.

Xalqaro platformalar va tadqiqot natijalarining tahlili. Mavjud xalqaro tadqiqotlar SI asosidagi til o'rganish platformalarining bir qator afzalliklarini ko'rsatadi. ELSA Speak kabi ilovalar nutqni tanish texnologiyasi yordamida talaffuzni real vaqtda tahlil qilib, o'quvchiga individual fikr-mulohaza berish imkonini yaratadi. Duolingo tomonidan e'lon qilingan samaradorlik hisobotlari gamifikatsiyalashgan mashqlar tizimining o'quvchilar motivatsiyasini va lug'at boyligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. ChatGPT va shunga o'xshash suhbat asosidagi vositalar esa yozma va og'zaki nutqni mashq qilish, xatolarni darhol tuzatish hamda kontekstga mos til materialini generatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili muhim cheklovlarni ham ochib beradi. Birinchidan, ko'rib chiqilgan platformalarning aksariyati ingliz tili yoki boshqa keng tarqalgan tillar uchun yig'ilgan katta hajmdagi til korpusiga tayanadi; kam resursli tillar uchun bunday korpuslar deyarli mavjud emas, bu esa SI vositalarining sifatli ishlashini cheklaydi. Ikkinchidan, o'zbek tili kabi agglyutinativ tillarda so'z yasalishi, kelishik va egalik affikslarining ko'pligi til modellarining grammatik tahlil sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammo lotin alifbosiga asoslangan flektiv tillar uchun mo'ljallangan tizimlarda kamdan-kam hisobga olinadi. Uchinchidan, mavjud tadqiqotlarning aksariyati texnologik imkoniyatlarni tavsiflashga qaratilgan bo'lib, ularni mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirish uchun zarur bo'lgan pedagogik-metodik asoslar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalarini chet til ta'limiga tatbiq etishda universal yechim mavjud emas – har bir til, xususan, morfologik jihatdan murakkab va kam resursli tillar o'ziga xos metodik yondashuvni talab qiladi. Bu esa mavzuning O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida alohida ilmiy tadqiq etilishi zarurligini asoslaydi.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning chet til ta'limiga tatbiq etilishi bo'yicha xalqaro tajriba ancha rivojlanganini, biroq bu tajribaning kam resursli va morfologik jihatdan murakkab tillarga, jumladan, o'zbek tiliga, to'g'ridan to'g'ri ko'chirib qo'llanishi metodik jihatdan cheklanganini ko'rsatdi. TAM, SAMR va Vygotskiy nazariyalari SI vositalarining til o'rganishdagi funksional o'rnini nazariy jihatdan izohlashga xizmat qilsa-da, bu nazariyalarni mahalliy tilshunoslik xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy metodikaga aylantirish alohida tadqiqot mavzusi bo'lib qolmoqda. Kelgusi tadqiqotlarda kam resursli tillar uchun til resurslarini yig'ish, mahalliy tilshunoslik xususiyatlariga moslashtirilgan pedagogik modellarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini empirik tekshirish dolzarb yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
2. Davis F.D. Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology // MIS Quarterly,1989. Vol. 13, №3. – P. 319–340.
3. Puentedura R.R. Transformation, Technology, and Education. – Hippasus, 2006.
4. Chapelle C.A. Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing, and Research. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
5. Kukulska-Hulme A. Mobile-Assisted Language Learning // The Encyclopedia of Applied Linguistics. – Wiley-Blackwell, 2013.
6. Godwin-Jones R. Emerging Technologies: Data-Informed Language Learning // Language Learning & Technology, 2022. Vol. 26, №1.
7. Duolingo Inc. Duolingo Language Learning Effectiveness Studies (Efficacy Reports). – 2021.
8. Warschauer, M., Healey, D. Computers and Language Learning: An Overview // Language Teaching, 1998. Vol. 31, № 2. – P. 57–71.
9. Kessler G. Technology and the Future of Language Teaching // Foreign Language Annals, 2018. Vol. 51, №1. – P. 205–218.
10. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.